O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Menejment fakulteti dekani
D.ISMAILOV
2026-yil “20” avgust

EKOLOGIK MENEJMENT

FANINING O‘QUV DASTURI

Bakalavr (kunduzgi ta’lim shakli)

Bilim sohasi:	400 000	– Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410 000	Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410800	Menejment

Toshkent – 2026



Dekan (Tasdiqlangan)
D.ISMAILOV

Mazkur o‘quv dasturi Menejment fakulteti Kengashining 2026-yil “30” iyun dagi T-10-sonli yig‘ilish bayoni bilan ma’qullangan.

Mazkur o‘quv dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Innovatsion menejment” kafedrasi tomonidan taqdim etilgan (kafedraning 2026-yil “26” iyun dagi 44-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

SHANAZAROVA G.B. — Dotsent

Taqrizchilar:

O.D.Djuraboev – DSc. professor v.b, TDIU va UDIU “Korporativ iqtisodiyot va biznes tahlili” kafedrasi mudiri

S.Yuldashev i.f.n., dotsent, TTESI “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsent



Kafedra mudiri
(Tasdiqlangan)
B.URINOV

1. Fan ma'lumotlari

Fan/modul kodi ENVMAN2505	**O‘quv yili** 2026-2027	**Semestr** 5	**ECTS – Kreditlar** 5.00
Fan/modul turi Tanlov	**Ta’lim tili** O‘zbek	**O‘quv rejadagi tartib raqami**	**Haftadagi dars soatlari**

Fanning nomi	Jami yuklama (soat)	Auditoriya mashg‘ulotlari jami – 60 soat, shundan:			Mustaqil ta’lim (soat)	Kurs ishi
		Ma’ruza	Amaliy	Lab-ya		
Ekologik menejment	150	30	30	0	90	-

2. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi – Ekologik menejment - tashkilotlar, korxonalar va jamiyat miqyosida tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Fan ekologik muammolarni hal qilishda iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, texnologik va ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini o‘rgatadi. Zamonaviy tendentsiyalar - ESG mezonlari, doiraviy iqtisodiyot, yashil va epik ishlab chiqarish - fan dasturiga to‘liq integratsiya qilingan. Unda dolzarb ekologik ilmiy-amaliy vazifalarnish maqbul yechimini topishga yunaltirilgan zamonaviy fan tizimining tez rivojlanib borayotgan soxalari qatoriga kiradi. Unda talabalarga globalizatsiya sharoitida iktisodiy-ekologik xayotni boshqarishning murakkab va tez uzgaruvchan xususiyatlarini tug‘ri tushunib olishiga, ushbu soxada xilma-xil axborotlarni taxlil kilishni urgatishga, ekologik boshkaruvning xozirgi ilmiy-amaliy darajasi bilan tanishtirishga yunaltirilgan. Fanning maqsadi - fan mazmunini anglab yetish talabalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish,tashkilot va korxonalar tashkiliy tuzilishining optimal variantlarini tanlash, usul va yo‘llarini bilishi va ulardan foydalana olishi; - boshqaruv tizimining turli pog‘onalarida vakolatlar va vazifalarni taqsimlash, talabalarga ekologik kontrolling, ekologik boshqaruv tizimining umumiy xususiyatlari va ularning prinsiplari, ekologik monitoringni o‘rgatish atrof muxitini muxofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish atrof-muxitni boshqarish shakilanish va rivojlanish masalalari ekologik tizimlar, jamiyatning ekologik xavfsizligi muammolari aniqlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; - yashil va epik ishlab chiqarish tamoyillarini (Lean + Green, Circular Economy) iqtisodiy samaradorlik bilan uyg‘unlashtirish; - ESG va Science-Based Targets asosida korporativ ekologik strategiya va dekarbonizatsiya yo‘l xaritasini ishlab chiqish; - atrof muxit boshqaruvining mazmuni va uni tashkilotda shakillanish bosqichlarini aks ettiradi. Atrof muhitni boshqarish soxasida standartlashtirishni davlat standartiga muvofiq atrof muxitni boshqarish tizimining maqsadlari, tamoyillari va modellarini ISO 14001-2007 ishlab chiqish va shakillantirishda samarali foydalanish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning vazifalari – Fanning vazifasi - talabalarda samarali tizimlarini shakillantirish asosida tashkilotning atrof muxitini boshqarishning metodologik asoslarini ko‘rib chiqish, atrof muxitni boshqarish xamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish ekologik xavflarni baxolashda boshqaruv qarorlarni

qabul qilish, tashkilot faoliyatining ekologik jixatdan aniqlash va ekologik muammolarni xal qilish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

3. Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar	
1.	Menejment MGT1101
2.	Sifat menejmenti QUAMAN1415

4. Ta’lim natijalari (TN)	
Kasbiy kompetensiyalar:	
TN1	Ekologik menejmentning zamonaviy kontseptsiyalarini, shu jumladan yashil ishlab chiqarish, doiraviy iqtisodiyot va epik ishlab chiqarish tamoyillarini tushuntirib bera oladi va real korxona misollarida tahlil qiladi.
TN2	ISO 14001:2015 standartiga asosan atrof-muhitni boshqarish tizimini loyihalaydi va Science-Based Targets hamda ESG mezonlariga muvofiq korporativ ekologik strategiya ishlab chiqadi
TN3	Moddiy va energiya oqimlarini tahlil qilish MFCA – ISO 14051 usuli yordamida ishlab chiqarishdagi resurse ffodalanish samaradorligini o‘lchaydi va yashil tejamkorlik imkoniyatlarini aniqlaydi.
TN4	Mahsulotning hayotiylik siklini LCA – ISO 14040/44 baholab, uglerod izi, suv izi va ekologik zararni miqdoriy jihatdan hisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.
Ko‘nikmalar:	
TN5	Ekologik audit va ekologik kontrolling vositalaridan foydalangan holda korxonaning dekarbonizatsiya yo‘l xaritasini tuzadi va samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) belgilaydi.
TN6	Yevropa Ittifoqi va xalqaro tajribaga asoslanib chiqindilarni boshqarishning zamonaviy iyerarxiyasini (Prevent → Reduce → Reuse → Recycle → Recover) qo‘llaydi va O‘zbekiston kontekstida qo‘llanilish imkoniyatlarini baholaydi.
TN7	Ekologik tavakkalchilikni sanoat 4.0 va raqamli ekologiya vositalari: IoT sensor monitoring, sun'iy intellekt asosidagi prognozlash tizimlaridan foydalangan holda baholaydi va boshqaradi.
TN8	Jamoada ishlash va loyiha boshqaruvi ko‘nikmalari asosida real korxona yoki shahar uchun yashil innovatsion loyiha tayyorlaydi va iqtisodiy-ekologik samarasini asoslab himoya qiladi.

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		**Soat**
Ma’ruza (M)		**30**
M1	**Ekologik menejmentga kirish. Yashil va epik ishlab chiqarish asoslari.** 1. Ekologik menejmentning mohiyati va rivojlanish tarixi 2. Yashil ishlab chiqarish (Green Manufacturing) va epik ishlab chiqarish (Lean Production) kontseptsiyalari 3. ESG va	4

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		Soat
	korporativ barqarorlik: zamonaviy megatrendlar 4. Ekologik menejmentning paradigmalari va tamoyillari	
M2	**Ekologik menejment bosqichlari, funktsional quyi tizimlari va vositalari.** 1. Ekologik menejment bosqichlari 2. Ekologik menejment funktsional quyi tizimlari 3. Raqamli ekologik monitoring vositalari (IoT, Big Data, AI) 4. Ekologik menejmentning paradigmalari va tamoyillari	2
M3	**Ekologik maqsadlar, muvaffaqiyat omillari va ko‘rsatkichlari.** 1. Ekologik manfaatlar va steykxolderlar ta'siri 2. Science-Based Targets va Net Zero strategiyasi 3. Tashkilotning muvaffaqiyat omillari 4. Ekologik KPI tizimi: uglerod izi, suv izi, chiqindi intensivligi	4
M4	**Epik va yashil ishlab chiqarish: Lean+Green integratsiyasi.** 1. Lean Production tamoyillari: isroflarni (muda) kamaytirish va ekologik foyda 2. Green Manufacturing kontseptsiyasi: energiya, suv va xom ashyo samaradorligi 3. Moddiy oqimlar xarajatlarini hisobga olish (MFCA – ISO 14051): Lean va ekologik tejamkorlikni birlashtirish 4. Amaliy holat tahlili: Toyota, IKEA, Siemens — Lean+Green muvaffaqiyat namunalari	2
M5	**Ekologik buxgalteriya va ekologik balanslar.** 1. Ekologik buxgalteriya va ekologik balanslar mohiyati 2. Uglerod hisobi (GHG Protocol: Scope 1, 2, 3) va moliyaviy ekologik hisobot 3. ISO 14051 va ISO 14052 bo‘yicha material oqimlari xarajatlari	2
M6	**Hayotiylik siklini baholash.** 1. Maxsulot LCA jarayonini baholashning mohiyati va maqsadi 2. Uglerod izi va suv izi hisoblash metodikasi (ISO 14064, ISO 14046) 3. ISO 14040 seriyasiga muvofiq LCA metodikasi	2
M7	**ESG hisoboti va yashil moliya.** 1. ESG mezonlari va korporativ barqarorlik hisoboti: GRI standartlari 2. Yashil obligatsiyalar (Green Bond) va barqaror investitsiyalar bozori: global tendentsiyalar 3. TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures): iqlim moliyaviy xavflarini oshkor qilish 4. Greenwashing xavfi: adolatli ekologik marketing va iste'molchilar himoyasi	4
M8	**Doiraviy iqtisodiyot va nol chiqindi strategiyasi.** 1. Doiraviy iqtisodiyot modeli: chiziqli iqtisodiyotdan doiraviyga o‘tish 2. Nol chiqindi strategiyasi: korxona va shahar darajasida amalga oshirish 3. Maxsulotni ekologik dizayn qilish: qayta ishlatish va qayta davrga kiritish uchun loyihalash. 4. O‘zbekistonda doiraviy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari va davlat siyosati	2
M9	**Ekologik audit va kontrolling.** 1. Ekologik auditning shakllanish tarixi va mazmuni 2. O‘zbekiston Respublikasida ekologik auditning me'yoriy-huquqiy bazasi 3. Xalqaro ekologik audit standarti va EU Green Deal auditlari 4. Ekologik audit protsedurasi va usullari 5. Ekologik kontrolling	2

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		**Soat**
M10	**Iqlim o‘zgarishi va korporativ dekarbonizatsiya.** 1. Iqlim o‘zgarishining iqtisodiy va ekologik oqibatlari: IPCC hisobotlari tahlili 2. Uglerod bozori va uglerod kvotalari: EU ETS va xalqaro mexanizmlar 3. Science-Based Targets va Net Zero yo‘l xaritasi: korporativ dekarbonizatsiya strategiyasi 4. O‘zbekistonning iqlim majburiyatlari: Paris kelishuvi va NDC (Milliy belgilangan hissa) rejasi	2
M11	Ekologik chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash xarajatlari menejmenti. 1.Ekologik chiqindilar tushunchasi va ularning turlari 2.Chiqindilarni qayta ishlashning zamonaviy usullari 3.Ekologik chiqindilarni boshqarishda xarajatlar tahlili 4.Korxonalarda chiqindilarni kamaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari	2
M12	Ekologik tavakkalchilik va sanoat xavfsizligi. . Tavakkalchilik xaqida umumiy tushuncha 2. Iqlim o‘zgarishi tavakkalchiliklari va sanoat xavfsizligi 3. Baxtsiz hodisalar va ofatlarning tasnifi 4. Tavakkalchilikni baholash va taxlil qilish sxemasi	2
Amaliy mashg‘ulot (A)		**30**
A1	Yashil va epik ishlab chiqarish asoslari. O‘zingiz tanlagan real yoki shartli sanoat korxonasi (to‘qimachilik, metallurgiya, oziq-ovqat yoki qurilish materiallari) misolida "an'anaviy ishlab chiqarish tizimi" va "yashil ishlab chiqarish tizimi"ning qiyosiy tahlilini o‘tkazish. SWOT-tahlil orqali korxonani "yashil"ga o‘tkazishning kuchli/zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlarini aniqlang Xulosada 3-5 ta amaliy tavsiya berish	4
A2	PDCA sikli bosqichlarini korxona sharoitiga moslab tavsiflash. Tizimni joriy etish uchun 12 oylik yo‘l xaritasi tayyorlash	2
A3	Ekologik maqsadlar, muvaffaqiyat omillari va ko‘rsatkichlari. Tanlangan korxona uchun SMART tamoyiliga asoslangan ekologik maqsadlar tizimi va ularni o‘lchash uchun KPI to‘plamini ishlab chiqish	4
A4	Epik va yashil ishlab chiqarish: Lean+Green integratsiyasi. Lean va Green metodologiyalarini integratsiyalashgan holda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish loyihasini tayyorlash..	2
A5	An'anaviy buxgalteriya hisoboti bilan ekologik buxgalteriya hisobotini solishtirib, "yashirin xarajatlar"ni ochib berish.	2
A6	Hayotiylik siklini baholash. Bitta aniq mahsulotni (masalan, plastik idish, kiyim, mebel) tanlab, ISO 14040/14044 standartlari asosida to‘liq LCA tahlilini o‘tkazish.	2
A7	ESG hisoboti va yashil moliya. Yashil obligatsiyalar yoki yashil kreditlar orqali moliyalashtirish imkoniyatini o‘rganish - foizlar, shartlar, xalqaro tajriba misolida	4
A8	Doiraviy iqtisodiyot va nol chiqindi strategiyasi. Doiraviy iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy samaradorligini (xarajat tejash, yangi daromad manbalari) baholash. Sxema (chiziqli vs doiraviy model) + 10-12 bet strategik reja.	2

5. Fan mazmuni va mashg‘ulotlar shakli:		Soat
A9	Ekologik audit va kontrolling. Audit rejasini tuzing: audit doirasi, mezonlari, dala tekshiruvi bosqichlari, ishtirokchilar Kamida 15 punktdan iborat audit nazorat varag‘ini ISO 14001 talablariga mos ishlab chiqish	2
A10	Iqlim o‘zgarishi va korporativ dekarbonizatsiya. Tanlangan korxona uchun GHG Protocol (Scope 1, 2, 3) metodologiyasi asosida uglerod izini hisoblash va Net Zero strategiyasini ishlab chiqinsh. Net Zero maqsadiga erishishning moliyaviy xarajatlari va kutilayotgan foydasini (obro‘, bozor ustunligi, tartibga solish risklaridan qochish) baholash.	2
A11	Ekologik chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash xarajatlari menejmenti. Tanlangan korxona uchun chiqindilarni boshqarish tizimini loyihalashtirib, chiqindi xarajatlarining to‘liq iqtisodiy tahlilini o‘tkazish.	2
A12	Ekologik tavakkalchilik va sanoat xavfsizligi. Ekologik sug‘urta va tavakkalchilikni moliyaviy qoplash mexanizmlarini o‘rganib, korxona uchun tavsiya beringsh	2

6. Mustaqil ta’lim topshiriqlari

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
1	ISO 14001 xalqaro standarti: mohiyati va joriy etish tartibi o‘rganish.	3
2	Ekologik menejment tizimlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari mavzusida 1000–1200 so‘zli tahliliy esse tayyorlash.	3
3	Ekologik xarajatlar va ularning korxona iqtisodiyotiga ta’siri bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
4	"Ifloslantiruvchi to‘laydi" printsipi va amaliyotda qo‘llanilishi bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
5	Ekologik soliqlar va jarimalar tizimi: milliy va xorijiy tajriba (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
6	Korxonalarda ekologik risklarni boshqarish strategiyasi bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
7	Ekologik menejmentda KPI va baholash ko‘rsatkichlari tizimi bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
8	Eko-innovatsiya va raqamli transformatsiya bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
9	Eko-innovatsiyalar: turlari, mohiyati va sanoat korxonalaridagi ahamiyati (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
10	Raqamli transformatsiya sharoitida ekologik boshqaruvning yangi modellari (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
11	Sanoat 4.0 va ekologik menejment: integratsiya masalalari (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
12	Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalarining ekologik boshqaruvdagi o‘rni (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
13	"Quintuple Helix" modeli asosida eko-innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
14	Aylanma iqtisodiyot kontseptsiyasi va amaliy modellari bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
15	Chiqindilarni qayta ishlash tizimi: jahon va O‘zbekiston tajribasi mavzusida 1000–1200 so‘zli tahliliy esse tayyorlash.	3
16	"Cradle to Cradle" dizayn printsipi sanoat korxonalarida (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
17	Resurs samaradorligini oshirish strategiyalari. ESG va korporativ boshqaruv (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
18	ESG mezonlari va korporativ boshqaruvda qo‘llanilishi (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
19	Korporativ ijtimoiy mas’uliyat va ekologik menejment uyg‘unligi mavzusida 1000–1200 so‘zli tahliliy esse tayyorlash.	3
20	Ekologik xisobot tuzish metodologiyasi (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
21	GRI standartlari asosida ekologik xisobdorlik (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
22	Global Innovation Index ko‘rsatkichlari va eko-innovatsiya o‘rni (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
23	Jahon davlatlarining ekologik reytinglari: tahlil va xulosalar Iklim va energetika (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
24	Iqlim o‘zgarishi sharoitida sanoat korxonalarining moslashuv strategiyalari (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
25	Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish: iqtisodiy jixatlar 28. Uglerod izi hisoblash metodikasi va kamaytirish yo‘llari	3
26	"Yashil" logistika va ta’minot zanjirini boshqarish bo‘yicha taklif ishlab chiqish (kichik guruhlarda hamkorlikda bajariladi).	3
27	Ekologik menejmentda kadrlar salohiyatini rivojlantirish mavzusida 1000–1200 so‘zli tahliliy esse tayyorlash.	3
28	O‘zbekistonda sanoat korxonalarining ekologik-innovatsion rivojlanishi: muammo va istiqbollar mavzusi bo‘yicha taklif ishlab chiqish	3
29	Xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Skandinaviya) ekologik menejment tajribasini milliy sharoitga moslashtirish	3

№	Mavzu / Topshiriq nomi	Soat
30	Kichik va o‘rta biznesda ekologik menejmentni joriy etishning o‘ziga xos jixatlari mavzusida 1000–1200 so‘zli tahliliy esse tayyorlash.	3
	Jami:	**90**

Izoh: *Talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi*

7. Ta’lim texnologiyalari va metodlari

ma’ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; vaziyatli topshiriqlar (keys-stadi)ni yechish; esse, tezis va maqolalar yozish; blits-so‘rov; kichik guruhlarda ishlash; taqdimotlar qilish; loyiha ishlarini bajarish va himoya qilish; simulyatsion va interaktiv metodlar; korxona va tashkilotlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish orqali real menejment jarayonlarini o‘rganish.

8. Talabalar tomonidan kreditlarni olish uchun talablar

Ushbu fan (modul) bo‘yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o‘quv materiallarini (testlar va yozma ishlar) bajarishga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, mustaqil ishlar va joriy natijalar uchun 20 ball, oraliq nazorat uchun 30 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi.

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
Joriy nazorat, shundan	**20**	**O‘quv jarayonining jadvali bo‘yicha**	
Dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki	10	talabaning dars jadvaliga muvoffiq ma'ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashg‘ulotlarida ishtirok etishi. Talabalarning dars mashg‘ulotlariga ishtirok etishlari majburiy hisoblanadi va talablarning dars mashg‘ulotlariga faol ishtiroki rag‘batlantiriladi.	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda
Mustaqil ta'lim, shundan	10	talabalar mustaqil ishlarini ikki yo‘nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi.	
1-mustaqil ish	5	mustaqil ta’lim mavzularidan biri bo‘yicha 1000–1200 so‘zli esse yoki tahliliy maqola yozish	Topshrishning oxirgi muddati: oraliq nazorat boshlanguniga qadar

Reytingni baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqlarni bajarilish muddati
2-mustaqil ish	5	Yashil innovatsion loyiha (Green Innovation Project): infografika, slayd yoki video-prezentatsiya + iqtisodiy-ekologik samarani hisoblash va himoya qilish	Topshrishning oxirgi muddati: oraliq nazoratdan keyingi haftada
Oraliq nazorat	**30**	**Kichik guruh taqdimoti: real korxona uchun yashil strategiya taklifi (ESG/Net Zero)**	**Akademik o‘quv yili grafigi bo‘yicha**
Yakuniy nazorat	**50**	**Test**	**Akademik o‘quv yili grafigi bo‘yicha**
Jami	**100**		

Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy balli har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB= JN+ON+YaN

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YaN – yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg‘ulotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (50 ball) ning kamida 60 foizini to‘play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi. Shuningdek, yakuniy nazorat uchun ajratilgan jami 50 ballning kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

9. Talabalar bilimini baholash mezoni

a) 5 (a’lo) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fanning mohiyati va mazmunini to‘liq yorita olsa;

– tizimli menejment mavzularini bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylikka amal qilib, xatolik va chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;

– nazariy bilimlarni turli boshqaruv vaziyatlarida qo‘llay olsa;

– berilgan savollarga aniq va lo‘nda javob bera olsa;

– mustaqil topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirgan bo‘lsa;

– tizimli yondashish va uzviylikka amal qilsa;

b) 4 (yaxshi) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fanning mohiyati va mazmunini tushungan, mavzularni bayon qilishda jiddiy chalkashliklarga yo‘l qo‘ymasa;

– fanning amaliy ahamiyatini tushungan bo‘lsa;

– berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘quv dasturi doirasida bajargan bo‘lsa;

– savollarga to‘g‘ri javob bera olsa va mustaqil topshiriqlarni to‘liq bajargan bo‘lsa;

– amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa;

d) 3 (qoniqarli) baho olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

– fan haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsa;

– mavzularni tor doirada yoritib, ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘ysa;

– mustaqil topshiriqlarni bajargan, biroq bayoni ravon bo‘lmasa;

– savollarga mujmal javob bersa;

e) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

– mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rmagan bo‘lsa;

– fan bo‘yicha hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa;

– mustaqil topshiriqlarni bajarmagan bo‘lsa;

– matnlarni boshqalardan ko‘chirib olganligi sezilib tursa;

– fanga doir savollarga javob bera olmasa;

Eslatma: Talabalar bilimini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi: joriy nazorat – 20 ball, oraliq nazorat – 30 ball, yakuniy nazorat – 50 ball. Talabaning umumiy bali quyidagi formula orqali hisoblanadi: YaB = JN + ON + YaN (JN – joriy nazorat, ON – oraliq nazorat, YaN – yakuniy nazorat). Joriy va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan ballarning hamda yakuniy nazorat balining kamida 60 foizini to‘play olmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

10. Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:	
1.	S.R. Allayarov, G.B.Shanazarova, N.A.Musadjanova, I.M.Mamatraimov Ekologik menejment.. [Darslik] – 2026. – 311 b.
2.	Г.Б.Шаназарова "Экологическое управления". [Darslik] – 2024. – 338 b.
3.	R.Mohan and P.Singah. Environmental Procsesses and Managementand. [Darslik] – Spingler, 2023. – 250 b.
Qo‘shimcha adabiyotlar:	
1.	А.В. Заграновская. Системный анализ деятельности организации. Санкт-Петербург 2022.
2.	Maksumova D.A. "Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmog‘ining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash" (iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi). Toshkent 2026. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, ilmiy rahbar — i.f.d., dots. Kasimov A.A.
Internet manbalari:	
1.	www.unep.org

2.	www.ellenmacarthurfoundation.org
3.	https://green-forum.ec.europa.eu/eu-environmental-technology-verification_en -
4.	www.globalreporting.org

11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa ish qabul qilinmaydi.

12. Dasturning boshqa ta'lim shakllari uchun tadbiq etilishi

Mazkur o‘quv dasturi kunduzgi ta'lim shakli uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida tegishlicha sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakli uchun ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi.